

## **"KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLANING MAKTABGA MOSLASHISH MUAMMOSI"**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi*

*1-24 guruhi talabasi*

**Berdiyeva Guliza Mirzohid qizi**

**Annotatsiya;** Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning mifik mukammolarini va uning davomida yuzaga keladigan psixologik, ijtimoiy hamda emotsional muammolar tahlil qilinadi. Bolaning oiladagi tarbiyasi, maktab muhitiga bo'lgan munosabati, o'qituvchi va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlari uning moslashuv darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maktabga endigina qadam qo'ygan bolalarda stress, xavotir, ijtimoiy faollikning pastligi kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Ushbu maqolada ana shunday muammolarning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llari, psixologik yondashuvlar va moslashtiruvchi pedagogik metodlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, bolaning maktab hayotiga tez va samarali moslashuvini ta'minlash uchun oila, o'qituvchi va maktab psixologi o'rtaqidagi hamkorlikning ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** kichik maktab yoshi, moslashish muammosi, maktab muhitiga moslashuv, psixologik moslashuv, ijtimoiy munosabatlari, maktab stressi, pedagogik yondashuvlar, ota-onalar va o'qituvchi hamkorligi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning maktabga moslashuvi murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, bu bosqichda ular ko'plab yangi ijtimoiy va psixologik sharoitlarga duch keladilar. Maktabga ilk bor qadam qo'ygan bola oilaviy muhitdan chiqib, yangi talablar, tartib-qoidalar va o'quv jarayoniga moslashishi kerak bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, bolalarda stress, xavotir, o'ziga ishonchsizlik, ijtimoiy faollikning pasayishi kabi salbiy holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.<sup>1</sup> Mazkur bosqichda bolaning maktab muhitiga

---

1. <sup>1</sup> Allayeva S. Maktabgacha va kichik maktab yoshi bolalarini rivojlantirish psixologiyasi. – Toshkent: O'zMU, 2021.

moslashuvi bir qator omillarga bog‘liq: oiladagi tarbiya uslubi, ota-onaning mehr-muhabbati va qo‘llab-quvvatlashi, o‘qituvchi va tengdoshlar bilan bo‘lgan munosabatlar, maktabdagagi ijtimoiy-madaniy muhit va pedagogik yondashuvlarning mosligi bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, o‘qituvchining bolaning individual xususiyatlariga mos yondashuvi, mehribonlik va e’tibor bilan yondashishi bolada mакtabga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga sabab bo‘ladi. Maqolada kichik mакtab yoshidagi bolalarda kuzatiladigan moslashuv muammolari sabablari chuqur tahlil qilinib, bu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha samarali psixologik va pedagogik strategiyalar yoritiladi. Jumladan, bolalarning emotsiyonal holatini kuzatish, ularni mакtab muhitiga asta-sekinlik bilan jalb etish, o‘yin orqali o‘qitish, ijtimoiy faoliyatlarga jalb etish, ota-onalar bilan hamkorlikda ishslash kabi usullar tavsiya etiladi. Shuningdek, mакtab psixologi, o‘qituvchi va ota-onalarning o‘zaro hamkorligi bolaning mакtab hayotiga tez va muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi. Bunday kompleks yondashuv orqali bolalarning moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklarni yumshatish va ularni ijtimoiy, psixologik hamda emotsiyonal jihatdan qo‘llab-quvvatlash imkoniyati yaratiladi.<sup>2</sup>

Bolaning mакtabga moslashuvi – bu nafaqat o‘quv jarayoniga, balki butunlay yangi ijtimoiy muhitga, tartib-intizomga va kommunikativ ko‘nikmalarga moslashishni anglatadi. Kichik mакtab yoshidagi bolalar ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri ifoda eta olmasligi, yangi vaziyatlarga moslasha olmasligi sababli, mакtabga kelish bilan bog‘liq turli psixologik muammolarga duch keladi. Bu holat bolaning o‘zlashtirish darajasi, darslarga bo‘lgan qiziqishi va sinfdoshlar bilan munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning mакtabga moslashish darajasi ko‘p jihatdan ularga nisbatan bildiriladigan talablar va kutishlarning realizmi, ya’ni bolaning rivojlanish bosqichiga mos kelishi bilan bog‘liq. Agar kattalar tomonidan bolaga haddan ortiq talab qo‘yilsa yoki u bilan yetarlicha emotsiyonal aloqa o‘rnatilmasa, bolada mакtabga nisbatan salbiy munosabat shakllanishi mumkin. Shu boisdan, pedagoglar va ota-onalar bolaga mакtab

---

2. <sup>2</sup> Allayeva S. Maktabgacha va kichik mакtab yoshi bolalarini rivojlantirish psixologiyasi. – Toshkent: O‘zMU, 2021.

hayotining ilk bosqichida ayniqsa ehtiyojkorlik bilan, qo'llab-quvvatlovchi munosabatda bo'lishlari zarur. Maktabgacha ta'lif muassasalari bilan maktab o'rtaisdagi uzviylikni ta'minlash, bolaning moslashuv bosqichini yengillashtiradi. Moslashuv davrida tashkil etiladigan turli sinfdan tashqari tadbirlar, psixologik treninglar, bolaning shaxsiy qiziqishlariga mos mashg'ulotlar ham moslashuvni yengillashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchining har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashuvi, ularning o'z-o'zini anglash va ifoda etishiga yordam berishi, sinf jamoasida o'z o'rmini topishga ko'maklashadi. Natijada, bolaning maktabga moslashuvi faqatgina bilim olish jarayoni emas, balki to'laqonli shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiy muhitda o'zini erkin tutishi va o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon eta olishi uchun zarur bo'lgan poydevordir. Shu bois, bu jarayonga ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan jiddiy yondashish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abduqodirov A. R. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Abdurahmonova R. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2015.
3. Abdullayeva G'. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
4. Azizzoxjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Alimova M.X. Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2017.
6. Allayeva S. Maktabgacha va kichik muktab yoshi bolalarini rivojlantirish psixologiyasi. – Toshkent: O'zMU, 2021.
7. Asqarova M. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2016.
8. Bekmurodov M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologiyasi. – Qarshi: Nasaf, 2022.
9. Berdaliyev A. Ta'lif jarayonida bolalarning moslashuvi. – Toshkent: TDPU, 2020.
10. Davletshin M.S. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan, 2004.

11. Ergashev I. Boshlang‘ich sinf pedagogikasi. – Toshkent: O‘zR FA, 2019.
12. Ermatov T. Yosh psixologiyasi. – Samarqand: SamDU, 2018.
13. G‘ofurov K. Maktabga tayyorlov bosqichining psixologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2017.
14. Hasanboyeva O. Bolalarda moslashuv muammolari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
15. Husanxo‘jayeva D. Pedagogik muloqot psixologiyasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
16. Islomova M. Shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhitning o‘rni. – Toshkent: TDPU, 2018.
17. Jalolova S. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
18. Karimova Z. O‘quvchilarning emotsional holatini boshqarish. – Toshkent: Fan, 2023.
19. Komilova M. Bolalar va o‘smirlar psixologiyasi. – Buxoro: BDU, 2021.
20. Mahkamova R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.